



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Qarshiyeva Dilnoza O'tkirjonovna

Samarqand viloyati XTXQTMOHM o'qituvchisi

## O'CHIRILGAN FAYLLARNI QAYTA TIKLASHDA EASY RECOVERY DASTURI IMKONIYATLARI

### Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi vaqtda dolzarb bo'lgan muammolardan biri o'chirilgan fayllarni tiklash haqida ma'lumotlar keltiriladi. Easy Recovery dasturi imkoniyatlari va uning afzalliklari, O'chirilgan fayllarni qayta tiklashda qulayliklari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** fayl, dastur, robototexnika, innovatsion loyiha, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Kirish.** Jismonan sog'lom, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega Vatanimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan barkamol yosh avlodni tarbiyalash hamda voyaga yetkazish uchun mamlakatimizda keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan **beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish**, respublikamizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlar ulg'ayib kelayotgan o'spirin iqtidorini yanada rivojlantirish, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yurt ravnaqi yo'lida ularning faol ishtirokini ta'minlashni bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yilning 19-mart kuni ilgari surgan 5 ta muhim tashabbusi doirasida o'tgan 1 yil mobaynida yurtimiz umumta'lim maktablarida turli to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yildi. Bugungi kunda Respublikamizda **9942 ta** umumta'lim maktablari faoliyat yuritayotgan bo'lsa, ularda **6 milliondan ortiq**

o'quvchilar ta'lim olmoqda. Shuni ta'kidlashimiz joizki, Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus respublikadagi barcha ta'lim muassasalarigacha kirib bordi.

**Xususan, Uchinchi tashabbus** – aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan bo'lib, ushbu tashabbus doirasida shu kunga qadar **444 607 nafar** o'quvchilarimiz to'garaklarga jalb qilindi.

Shu bilan bir qatorda, davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida **“Intech Robotics” MCHJ** va **“Innovative Service” MCHJ** kompaniyalari bilan **“Barkamol avlod”** respublika o'lkashunoslik va ekologiya markazida **RoboCraft** robototexnika kurslari hamda **“Barkamol avlod”** respublika texnik ijodiyot markazida **Robotrek** injener-konstruktor, robototexnika to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yilib, **520 nafar** o'quvchi-yoshlar jalb etildi.

Hozirda beshta muhim tashabbus doirasida yurtimiz umumta'lim maktablarida tashkil etilgan turli to'garaklar namunali faoliyat olib borish bilan bir qatorda, o'zining natijasini bermoqda.

Yosh avlodni ma'naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlash, bunda ularning san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishini oshirish hamda qizlarni ijtimoiy faol hayotga tayyorlashni tashkillashtirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llash orqali bolalarni individual rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va uslubiy materiallarni doimiy takomillashtirib borish zarur. Shuningdek, robototexnika, muhandislik va kompyuter dasturiy ta'minoti yo'nalishlaridagi to'garaklarni doimiy rivojlantirib borish zarur. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi **“O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”**gi PF-6108-son Farmoni hamda **“Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”**gi PQ-4884-son qarorlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ilg'or ish tajribalarni o'rganish va ularni ommalashtirish, shuningdek, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish tartibini belgilaydi.

Hozir 21 asr texnika asri bo'lganligi uchun kompyuter texnologiyalari va internet dunyoda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalaridan biriga aylanib bormoqda. Kompyuterlar asta-sekin insonlar hayotiga kirib bormoqda.

Kompyuter texnologiyalari va internet, ta'lim muassasida yani maktablar, kasb-hunar kollejlari, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, davlat muassasalarida behad ahamiyat kasb etmoqda va keng foydalanilmoqda.

Taraqqiyot rivojlangan sari axborotlarni saqlash undan foydalanish turlicha tus olmoqda. Masalam oldin axborotni kitobda saqlashgan yoki bo'lmasa eslab qolishgan. Bugungi kunda axborotlarni saqlash va uzatish axborot saqlovchi qurilmalarga ham bog'liq. Axborot saqlovchi qurilmalarning ixchamligi va axborotni ixcham usulda saqlash, tezkor ulanib axborot almashish ko'pchilikni qiziqtiradi. Barcha soha vakillari mushkullarini osonlashtirish maqsadida kompyuterlardan axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va uzatish uchun foydalanadi .


Lekin ko'pchilik duch keladigan muammo kompyuterlardan ma'lumot almashish va internet tarmog'idan foydalanilganda axborotlarning o'chib ketishi. Axbototlar bexosdan yoki bo'lmasa virus tushish oqibatida o'chib ketishi mumkin. Ochirilgan ma'lumotlarni tiklash uchun Recovery, Recovery My Files, Easy Recovery dasturlardan foydalanish mumkin. Bu dasturlarning ish mohiyati bir xil ammo ma'lumotlarni tiklash uslubi har xil.

Bu dastur ko'p imkoniyatli bo'lib hatto qattiq disk ustida sozlash amallarini bajarish, ma'lumotlarni tiklashning bir necha xil usuli, fayllarni tiklashni va bundan tashqari electron pochtani ham tiklay olish xususiyatiga ega.

Yani, faol ish yurituvchini internet global tarmog'isiz, intellektual ishchini esa ish joyida kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter texnologiyalari inson hayot tarzida, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, o'quv dargohlarida, davlat muassasalarida behad ahamiyat kasb etmoqda. Bu dasturdan ta'lim sohasida qo'llasak yaxshi samara beradi. Sababi, maktab kollej va litsey o'quvchilari kompyuterni o'rganish davomida bilib-bilmay judaham zarur ma'lumotlarni o'chirib yuborishi mumkin. Yoki bo'lmasa fleshkaga ma'lumot olish va yangi ma'lumotlarni kompyuterga ko'chirish davomida virus tushib kompyuterdagi va fleshkadagi ma'lumotlar o'chib ketishi mumkin. Bu malumotlarni qaytadan kirgizishimiz uchun ancha mehnat va vaqt talab qiladi. Easy Recovery dasturi orqali osongina kompyuterni ham fleshkani ham ma'lumotlarini tiklashimiz mumkin.

Keling shu dasturlardan Easy Recovery dasturi ishlashini ko'rib o'tamiz.

Dastlab Flashkani to'liq formatlab olamiz.



Va shundan so'ng flashkaga har xil ma'lumotlar yozamiz.

Misol tariqasida rasm, hujjat va boshqalar.

Flashkaga yozilgan hujjat, rasm va qo'shiq.


Endi mavjud ma'lumotlarning barchasini flashkadan o'chirib tashlaymiz yoki ehtiyotsizlik oqibatida o'chib ketsa yoki Flashkaga virus tushib barcha ma'lumotlar o'chib ketsa, bu ma'lumotlarni iloji boricha tiklash uchun maxsus dasturlardan foydalanib tiklashimiz mumkin.

Dasturni ishga tushirganimizdagi umumiy ko'rinishi

Bu dastur ko'p imkoniyatli bo'lib hatto qattiq disk ustida ham bir necha xil sozlash amallarini bajarish, ma'lumotlarni tiklashning bir necha xil usuli, fayllarni tiklashni (Word, Excel, Access, Power Point, arxiv fayllar) bir necha xil usuli, va bundan tashqari electron pochtani ham tiklay olish xususiyatiga ega.


Yuqorida flashkaga yozilgan ma'lumotlar ustida amallar bajarib o'tamiz, buning uchun mavjud ma'lumotlarni o'chirib tashlaymiz. "Izoh: Qayta tiklangan ma'lumotlar ayrimlari to'liq ochilmay qolishi ham mumkin".

Flashkadagi ma'lumotlarni o'chirib tashlagandan so'ng Easy Recovery dasturining chap tomonida joylashgan (Восстановление данных) ma'lumotlarni tiklash bandidan "O'chirilgan fayllarni qidirish va tiklash" tanlanadi.



Bunda flashkani tanlab "to'liq skanerlash" va barcha fayllar deb korsatib Далее tugmasini bosamiz va avtomatik holda qidiruv davom etadi.

Shundan so'ng tikklanishi kerak bo'lgan fayllar ro'yxati ko'rsatiladi va kerakli fayllar tanlanib ularni qayerga saqlash kerakligini ko'rsatish kerak boladi.



### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fayziyeva M.R., Sayfurov D.M., Xaytullayeva N.S., Tursunova F.R. "Informatika va axborot texnologiyalari 6-sinf uchun darslik", 2021
2. Aripov A.N., Mirzaxidov X.M.Shermatov SH.X. va b "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug'ati". Toshkent shahri.
3. Голиков Д. В. "40 проектов на Scratch для юных программистов". BHV, 2018 г.
4. Голиков Д. В. и Голиков А. Д. Программирование на Scratch 2. Часть 1. Делаем игры и мультики. Подробное пошаговое руководство для самостоятельного изучения ребёнком. 2014. –295 с.2. А.Ю.Гаевский. Информатика. Учебн. пособие. – Киев: «А.С.К.», 2006.
5. А.А.Бобцов, А.В.Лямин. Основы работы в среде Windows. Учебно- методическое пособие. – СПб., 2002.
6. А.Н.Лебедев. Windows 7 и Office 2010. – СПб.: «Питер», 2010.
7. <http://www.findsoft.ru/>. AutoPlay Media Studio 7.0 – быстрое создание мультимедиа-приложений.
8. <http://easyquizzzy.com>
9. <http://uzedu.uz>



10. <http://idum.uz>
11. <http://ziyonet.uz>
12. <http://cs.usu.edu.ru/>. Мультимедиа.
13. <http://websound.ru/>. MIDI-технология.
14. <http://inf.yspu.yar.ru/>. Мультимедийные технологии.
15. <http://www.3dnews.ru/software/autoplay-media-studio>
16. <http://en.wikipedia.org/wiki/AutoPlay>
17. <http://www.indigorose.com/products/autoplay-media-studio>
18. <http://scratch.ucoz.net>